IJTIMOIY-IQTISODIY OYKONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI (QO‘SHRABOT TUMANI OYKONIMLARI MISOLIDA)

Nurmuxammedov Bahodir Shakarboyevich

Samarqand davlat chet tillar institute tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA: Oykonimika – aholi yashash maskanlari va ularning qismlari: shahar, qishloq, mahalla, guzar, ko‘cha, ovul, qo‘rg‘on nomlarini o‘rganuvchi soha hisoblanadi. Ushbu maqolada oykonimika sohasining o‘rganilish obyekti bo‘lgan oykonimlar haqida so‘z boradi. Shu jumladan, maqolada xalq tarixi, etnografiyasi, madaniyati va ma’naviyati uchun ahamiyatli ammo tushunilishi qiyin bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy oykonimlarning nomlanish qonuniyatlari hamda tarixiy xususiyatlari leksik-semantik va etimologik tahlil tamoyillari asosida tushuntirib berilgan.

KALIT SO`ZLAR: Oykonimlar, bir o‘zakli, ikki o‘zakli, uch o‘zakli, etnooykonimlar, abstrakt oykonimlar.

ABSTRACT: Oeconomicus is a field that studies the proper names of inhabited settlements and its specific units like city, town, village, neighborhood and streets. This article is about the oeconyms which are the objects of a study in the field of oeconomics. The article also studies the laws of naming and the historical features of socio-economic oeconyms that are important for the history, ethnography, culture and spirituality of the people, but are difficult to understand, based on the principals of lexical-semantic and etymological analysis.

KEY WORDS: Oeconymus, single-core words, double-core word, triple-core words, ethnooeconyms, abstract oeconym.

KIRISH

Kishilik jamiyatining bugungi kungacha bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘liga nazar tashlasak, uning doimiy ravishda tadrijiy rivojlanishiga guvoh bo‘lamiz. Insoniyat paydo bo‘libdiki, uning tashqi qiyofasi, yashash tarzi, madaniyati taraqqiy topdi, bevosita ong-tafakkuri, aql-zakovati va bilim-saviyasi ham oshib bordi. Insonlar ma`naviy jihatdan yuksalgan sayin atrof-muhitga ham o‘z ta`sirlarini o‘tkaza boshladilar. Xususan, tevarak atrofdagi yerlarni, qir-adirlarni, tog‘larni, daryo-ko‘llarni, yaylov va o‘tloqlarni ma`lum bir nom bilan atay boshladilar. Bu esa fanda toponimika(yun. topos – joy, va onyma – ism, nom) sohasining shakllanishiga olib keldi. Dastlabki toponimlar sodda nomlardan tashkil topgan edi. Ular oddiy turdosh otlar bilan deyarli bir xil bo‘lgan. Keyinchalik, insonlarda ijtimoiy ong rivojlanib, tushunchalar soni ortib brogan sayin geografik hududlarga berilgan nomlar ham leksik-semantik va grammatik jihatdan murakkablashib bordi. Ayniqsa, toponimiyaning eng o‘zgaruvchan tarmog‘i hisoblangan oykonimlar lug‘aviy tarkibi kun sayin boyib bormoqda. Oykonimlar deganda, shahar, mahalla, qishloq, ovul va boshqa aholi punktlariga qo‘yilgan nomlar tushuniladi. Oykonimlar boshqa toponim turlaridan tarixiy va lisoniy (lingvistik) jihatdan boy madaniy merosga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Chunki ular nafaqat hududlarning atash ma`nolarini anglatadi, balki, o‘zida o‘lka tabiatining o‘ziga xos xususiyatlari, kishilik jamiyati hayotida yuz bergan ijtimoiy, tarixiy va siyosiy hodisalarni ham aks ettiradi. Shuningdek, ular orqali o‘tmishda yashagan qabila-urug‘larning nomi, ushbu hududlarga birinchi bo‘lib asos solgan kishilarning ismi va aholining kasb-hunar mashg‘ulotlari haqida ham atroflikcha ma`lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Shuning uchun ham hududlardagi etnooykonimik, antropooykonimik va shaxs faoliyati bilan bog‘liq

oykonimlar lug‘uviy boyligini to‘plash va ularni atroflicha leksik-semantik hamda tarixiy-etimologik jihatdan tadqiq etish faqat tilshunoslik fani uchun emas, balki xalq tarixi, etnografiyasi, madaniyati va ma’naviyati uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOTNING METODOLOGIK ASOSLARI VA USULLARI

Aholi punktlari ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Shu sababdan ham, oykonimlar (ya`ni hududlarga berilgan nomlar)ning tarkib topishi va atalish qonuniyatlarini faqatgina tilshunolik fani doirasida o‘rganib bo‘lmaydi. Ularning ma`noviy va etimologik jihatlarini to‘g‘ri talqin qilish va tahlil etishda tarix, geografiya, geologiya, etnografiya, arxeologiya, kartografiya kabi ko‘pgina fanlarning dalillari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu kabi ma`lumotlardan foydalangan holda olimlar oykonimlarni leksik-semantik va ilmiy nazariy tadqiq etishning ko‘plab tamoyillarini ishlab chiqishgan. Masalan, shahar-qishloqlarga qo‘yilgan nomlarni yakka-yakka o‘rgangandan ko‘ra guruhlarga ajratib, keyin har bir guruhga mansub oykonimlarni tasniflab o‘rganish maqsadga muvofiq. Biz ham ushbu tamoyillardan foydalangan holda Qo‘shrabot tumani hududidan to‘plangan ayrim etnotoponimlarning leksik-semantik xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz.

NATIJA VA MUHOKAMA

Samarqand viloyatida ikki mimgdan ortiq aholi puntklari mavjud va ularning har biri o‘z nomiga ega. Viloyat toponimiyasining asosiy qismini o‘zbekcha nomlar tashkil qiladi, ammo tojikcha oykonimlarning foizi ham salmoqli darajada. Shuningdek, Samarqand viloyati qadimda So‘g‘diyona davlatining markazi bo‘lganligi sababli so‘g‘diycha nomlar ham yo‘q emas. Viloyat oykonimlarining boshqa viloyatlardan ajralib turadigan xususiyati tarkibida etnooykonimlarning ko‘pligidir. Masalan, Qo‘shrabot tumanidagi aholi punktlari nomlari kesimida urug‘-qabila nomlari 35% ni tashkil etadi.

Aholi punktlari nomlarini asosan 2 yirik guruhga bo‘lish mumkin:

1) Tabiiy yoki tabiiy-geografik oykonimlar.
2) Ijtimoiy-iqtisodiy oykonimlar.

Ilmiy tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, joylarga nom berishda o‘troq xalqlar joyni tabiiy-geografik xususiyatiga qarab nomlar, ko‘chmanchi aholi bo‘lsa joyni ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatiga qarab, ya`ni, o‘z urug‘ va qabilalarining nomi bilan atashar ekan. Biz esa ushbu maqolada ijtimoiy-iqtisodiy oykonimlar xususida so‘z yuritamiz. Qo‘shrabot tumanida oykonimlarning etnooykonimlar, antropooykonimlar, agiooronimlar, nekronimlar, abstrakt oykonimlar hamda shaxs faoliyati bilan bog‘liq oykonimlar singari turlarini uchratish mumkin. Tumandagi ijtimoiy-iqtisodiy etnooykonimlarni leksik-semantik tahlil qilish uchun o’zakli tarkibi miqdoriga ko’ra quyidagicha guruhlarga ajratdik:

1. Bir o‘zakli etnooykonimlar (Aymat, Bolg‘ali, Boqi, Chig‘atoy, Kapa, Noqi, Ocha, Solpi, Orlot, Qatag‘on, v.h.)
2. Ikki o‘zakli etnooykonimlar (Boqichig‘atoy, Beklarsoy, Chormitan, Jobutoy, Qoraqo‘zi, Soribuloq, Tozg‘ora, v.h.)
3. Uch o‘zakli etnooykonimlar (Eshbo‘raboy, Yangi Oqchop, Yuqori Qo‘shtamg‘ali, Pastki Qo‘shtamg‘ali, v.h.)

Qo'shrabot tumanida aholining kasb-hunarini ifoda qiluvchi oykonimlar ham ijtimoiy-iqtisodiy toponimlarning bir bog'inini tashkil etadi. O'zbek tilida ikki va undan ortiq so'zlar (turdosh otlar)dan iborat geografik nomlar qo'shib yoziladi. Bunday holat ushbu tumandagi ikki o'zakli qo'shma etnooykonimlar imlosi uchun ham xarakterlidir. Miqdor jihatiga to'xtaladigan bo'lsak, ikki o'zakli etnooykonimlar bir o'zakli va uch o'zakli etnooykonimlardan ustun. Shuningdek, boshqa oykonim turlaridan farqli ravishda hosil bo'lishiga ko'ra yasama (sun`iy) oykonim hisoblangan abstrakt oykonimlarning faqatgina bir o'zakli turi mavjud.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta`kidlash joizki, bugungi bilimli inson, eng avvalo, mavjud joy nomlarining izohini yaxshi bilishi, leksik-semantik va etimologik tahlil tamoyillari asosida ularni to'g'ri talqin qila olishi lozim. Bu borada O'zbekiston Respublikasi ta`lim dargohlari, maktab hamda litseylarda talaba va o'quvchilarning toponimika sohasini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish chora-tadbirlarini yo'lga qo'yish lozim. Shuningdek, yosh avlodlarga geografik hududlarga qo'yilgan nomlarning mazmum-mohiyati, kelib chiqish tarixi va tamoyillarini o'rgatish borasida ilmiy ishlar olib borish lozim. Zero, o'z o'tmishi va kelib chiqish tarixini bilgan, an`analariga va milliy urf-odatlariga befarq bo'lmagan yoshlar kelajakda buyuk shaxslar bo'lib yetishadilar.

REFERENCES:

1. Toponimika: darslik / Q.M. Hakimov, M.T. Mirkamilov. – Toshkent: Tafakkur avlodi nashriyoti, 2020. – 345 b.
2. O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati: o'quv qo'llanma / T. Nafasov, V. Nafasova. – Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2007. – 81b.
3. Toponimika: o'quv qo'llanma / S. Qorayev – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 320 b.
4. Oykonimiya va uning toponimika tizimida tutgan o'rni: ilmiy maqola / O.T. Begimov. – Euroasian journal of academic research, 2023. – jurnalga kirish tartibi: https://in-academy.uz
5. Эргашева, З. А. (2023). КАУЗАЛЛИК ВА СУБЪЕКТИВЛИК МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ВОҚЕЛАНИШИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, *6*(1).